

Nutq Akti Turlarining Nazariy Tadqiqi

Amirxamzayeva Zulxijja¹

Annotatsiya: Ushbu maqola nutq aktini alohida talimot qilib o'rganish va uning oziga xos xususiyatlari va turlari haqida malumot berishi bilan birgalikda, bu mavzu yuzasidan tilshunoslarning fikri va aniq xulosalar keltirib o'tiladi. Nutqiy aktning nazariy jihatdan o'rganish va uning turlarini tadqiq etilishi bo'yicha malumotlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: nutqiy akt, lokutiv akt, illokutiv akt, perlokutiv akt, pragmatika.

Kirish. Bugungi kunda og'zaki muloqot muammolarini o'rganish tilshunoslik va unga bog'liq bir nechta sohalar, shuningdek, psixolingvistika, sotsiolingvistika, neyrolingvistika kabi yo'nalishlarning asosiy markazida turadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki ushbu sohalar o'rganish mobaynida nutq aktining ahamiyati beqiyosdir va buningsiz yuqoridagi terminlarni izohlash qiyin. Shuning uchun bu nutq aktini o'rganish va uning turlarga kategoriyalash bir nechta tilshunoslarning o'z e'tiborini tortdi. Va bu terminlarning kelib chiqishi XX asrning o'rtalariga borib taqaldi. Ushbu davrdan so'ng turli fikrlar uyg'unlashi orqali yaqqol fikr va xulosalar kelib chiqa boshladi. Shuningdek ushbu maqolada nutq aktning qanday vujudga kelgan va qaysi fanlar bilan o'zaro bog'liq ekani haqidagi fikrlar yuritiladi va uning turlarga bo'linishida qaysi olim va tilshunoslarning fikri inobatga olingani haqida batafsil malumotlar beriladi. Nutqiy akt mazmunining tarkib topishi va uning voqelanishi bevosita so'zlovchining muloqot maqsadi, istagi va nimani qanday fikrlar bilan ifodalanyotgani bilan aniqlanadi. Shu sababli bo'lsa kerakki, pragmatiklar va mantiqshunoslar hozirgacha lisoniy belgilarning nutqiy aktlar ma'naviy tuzilishida tutgan o'rni haqida bir to'xtamga kelish juda qiyin va turli asoslar bilan o'z fikrlarini inobatga olinishi kerakligini haqida aytib o'tishgan. Ko'pgina olimlar nutq harakatlari borasidagi mavjud tasniflarni mavhumligi va ularni tasniflash qiyin ekanini, real ijtimoiy sharoitlardan ajratilganligi va ko'plab parametrlar e'tiborga olinmaganligi sababli tanqid qildilar va bir necha fikrlarni izohlab o'tilgan. Ularni esa quyida izohlab, keltirib o'tamiz.

Nutq aktining yuzaga kelishi

Nutq aktini yuzaga kelishi xx asr o'rtalariga borishini ta'kidlangandi va shuni keng shaklda izohlanishiga keladigan bo'lsak, bu lingvofalsafa bilan chambarchas bog'liqdir. Nutq aktining tilshunoslik olamiga kirib kelishi pragmatikaning asoschisi amerikalik olim Ch.S. Pirsning tilga mantiqiy-falsafiy kategoriya deb qarashi asos bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki bu qarashlar orqali tilshunoslik fanida katta o'zgarishlar yuz bera boshladi. Nutqiy akt- muayyan jamiyatda qabul qilingan nutqiy xulq-atvor tamoyillari va qoidalarga muvofiq amalga oshiriladigan maqsadli nutq harakati sanaladi². Bundan ko'rinib turibdiki, nutqiy akt - lingvistik xulq-atvor qoidalarga muvofiq amalga oshiriladigan maqsadli aloqa harakat bo'lib, so'zlovchi, tinglovchi va nutqiy vaziyat kabi uchta komponentni o'z ichiga oladi. Va bu qarashlar orqali nutqiy aktlar yuzaga kelib chiqqan. Bundan tashqari nutq aktlarida duch kelgan muammolar ko'lamida ham ko'plab tilshunoslar o'z hissalarini qo'shishgan. Ulardan V. Gumboldt, S. Balls, S. Kartsevskiy, L. P. Yakubinskiy, K. L. Bulsra, E. Benveniste, M. M. Baxtinlar o'z nazariya va konsepsiyalari orqal ushbu mavzuni yoritib berib tilshunoslikda ko'plab burilishlar qilindi desak adashmagan bo'lamiz. 1950-yillarning o'rtalarida J. Ostin nutqiy aktlarni nisbatan mukammal mezonlarini ishlab chiqdi. Unga ko'ra aloqa birligi gap yoki matn faqatgina xabar emas, balki savol, tushuntirish, ogohlantirish, tavsif, minnatdorchilik, pushaymonlik kabi nutqiy harakatlarni bajaradi. J.Ostin nutq akti bilan bog'liq fikrlarini " Слово как

¹O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Xorijiy til va adabiyoti, 2-ingliz fakulteti, 4-bosqich talabasi

² Лингвистический энциклопедический словарь.- М.:Сов, энциклопедия, 1990



действие” asarida keltiradi.³ Ushbu fikrlarni inobatga olgan holda, shuni anglashimiz mumkinki, har qanday tilning nutqiy muloqotida murojaatning to‘g‘ri shaklidan foydalanish uchun muayyan bir parametrlari yuzaga keladi. Jumladan, ingliz va o‘zbek murojaatlarining o‘ziga xos parametrlari murojaat ifodalovchi so‘zlarni to‘g‘ri va aloqa munozarasiga mos kelishini va tanlashni belgilashda muhim omil sanaladi.

J. Ostin va Serlning fikrlariga tayanib, J. Lich odoblilik prinsipi nuqtayi nazaridan nutq harakatlarining tasnifini ishlab chiqadi. Mezon sifatida u nutqiy harakatning odob-axloq darajasini ajratib ko‘rsatadi⁴. Bu fikrlarni ham inobatga olgan holda boshqa tilshunoslar ham o‘z fikrlarini bayon eta boshlashdi. Va ulardan bir necha fikrlar ya‘ni shu kabi olimlardan biri D.Frank nutqiy harakatlar nazariyasi og‘zaki muloqotning pragmatik nazariyasini qurish uchun asosiy konseptual apparat sifatida nima uchun yetarli emasligini izohlaydi.⁵ Shunga qaramay, nutq aktini pragmatika sohasidagi dolzarb muammo sifatida va uni har bir ko‘lami tomonidan tahlil qilish davom etadi. Shuningdek, I.A. Bezmenov va V.I. Gerasimov nutq harakatlarining mavjud nazariyasi asosida salomlashishning rituellashtirilgan shakllarini o‘rganadilar.⁶ T.A. Van Deyk birinchilardan bo‘lib nutq aktlarining bog‘lanishini tavsiflashga urinib ko‘rdi. U nutq aloqadorligi muloqotni amalga oshirishdagi zarur sharti ekanligini qayd etadi va oldingi nutq harakatlarining natijalari keyingilari uchun muhim shartsharoitlarni yaratishi kerakligini ta‘kidlaydi.⁷ Bu qatorda ko‘plab olim va tilshunoslarni fikrini inobatga olib yozsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki berilayotgan fikrlarni aksariyati qo‘llab quvvatlangan va yetarlicha asoslangan. Va nutq aktini yoqlamay va tanqid qilib fikrlarini izohlab berganlar ham yo‘q emas. Nutq akti tushunchasini tanqid qilgan tilshunoslardan yana biri J. Meyning fikricha, nutq aktlarining klassik nazariyasi faqatgina nutq aktlari turlarini aniqlashga, shuningdek, «qoidalar»ni o‘rnatishga qaratilgan. U: “Nutq akti tushunchasi faqat nutq odobida mustahkamlangan aloqaning barqaror “formulalari”ni nazarda tutadi, ammo barcha nutqiy harakatlar stereotiplarga mos kelmaydi. Shaxslararo o‘zaro ta’sirlar dinamikasida shunday kommunikativ maqsadlar mavjud bo‘lib, ularni amalga oshirish uchun ma’lum tasniflarda aniq nutq aktini topish mumkin emas”⁸-deydi. Ularning tadqiqotlari asosida tilni harakat sifatida tushunish yotadi. Nutq akti uzoq vaqt davomida pragmatik tahlil birligi hisoblanib, bu nazariyaning o‘rganish ob’ekti nutq akti, ya‘ni ma’lum bir muloqot sharoitida tinglovchiga murojaat qilgan so‘zlovchining nutqi, nutqda qabul qilingan nutqiy xulq-atvor tamoyillari va qoidalariga muvofiq amalga oshiriladigan maqsadli nutq harakatidir. Shu kabi fikrlar izohidan so‘ng nutq akti ham shakllana boshlandi va shu bilan birgalikda uni katagoriyalash ham boshlanib ketgan edi. Va shu bilan birgalikda turli xil baxslar va fikrlar to‘qnashuvi yuzaga kela boshlagan. Ammo asoslanib berilgan va o‘z fikrlar ifodasini topganlari orasidan namunalar berib o‘tilishi lozim demakdir. Bu tushunchalar orqali nutq akti va uning turlari haqida keraklicha ma’lumotlar olishimiz va uni ahamiyati ham fikr yuritib berishimiz ham maqsadga muvofiq bo‘ladi, albatta. Nutq aktini yuzaga kelishida ham uni turlarga ajratishda ham eng kata hissa qo‘shgan tilshunos shubhasis bu-Jon Ostin hisoblanadi. U keltirgan har bir fikr haqiqatga yaqin va bu tilshunoslik olamiga olib kirilgan. Ilgari, til faqat voqelikni va bo‘layotgan hodisalarni tasvirlash uchun xizmat qiladi, nutq esa voqelikka faqat bilvosita ta’sir qilishi mumkin deb qaralgan. Ostin nazariyasi asosida esa bu nazariyani boshqa tomondan ham qarashimiz mumkin ya‘ni, tilfaqat voqelikni tasvirlabgina qolmay, balki harakatni ham bajarishi yotadi va maqsadlilik va shartlilik nutq aktining asosiy xususiyatlari deb qaraladi. Shu sababdan ham Jon Ostin fikrlari taqsiinga sazovordir. Bundan tashqari yana bir fikrlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak Sh.Safarov ta‘kidlaganidek, “Nutq jarayoni, insonning faoliyati uning ruhiy, fiziologik, ijtimoiy, ma’naviy, madaniy kabi ijtimoiy va tabiiy faoliyati bo‘lganligi sababli,

³ Дж Остин. Слово как действие// НЗЛ. Вып. XVII.-М.,1986..

⁴ Leech G.H. Principles of Pragmatics / Leech G.H. – NY, London: Longman, 1983. – 250 p.

⁵ Франк Д. Семь грехов прагматики: тезисы о теории речевых актов, анализе речевого общения, лингвистике и риторике/ Д. Франк// Зарубежнаялингвистика: Пер. с англ. / Общ. ред. В.А.Звегинцева, Б.А.Успенского, Б.Ю.Городицкого. – М., 1999. – Вып.2. – С.254-264

⁶ Безменова И.А. Некоторые проблемы теории речевых актов/ И.А. Безменова, В.И. Герасимов// Языковая деятельность в аспектелингвистической прагматики: Сб. обзоров. Сер. Теория и история языкознания/ Отв. ред. В.И. Герасимов. – М., 1984. – С. 146-222.

⁷ Dijk T.A. van. Studies in the pragmatics of discourse / Dijk T.A. van. – The Hague etc.: Mouton,1981. – XII, 331p.

⁸ Mey J.L. Pragmatics. An Introduction / Mey J.L.– USA, UK: Blackwell Publishers, 2001, 2 nded. –500



pragmatikada nutqiy faoliyat insoniy faoliyatning qolgan o'nlab qirralari bilan bog'liqlikda o'rganiladi"⁹. Ushbu fikr va qarashlar orqali tilshunoslikda nutq akti talimoti maydonga chiqqan bo'lsa uning turlari va vazifa ahamiyatiga ko'ra turli qarashlarni o'z ichiga ola boshlaydi. O'zbek tilshunosligida ham va boshqa tillar orasida ham o'z muhimligini yo'qotmadi. Shu jihatdan quyidagi fikrlarni keltirib o'tish joizdir. O'zbek tilshunosligida murojaat kategoriyasi muammosi M. Xakimov tomonidan maxsus o'rganilgan va o'z navbatida alohida ahamiyatga ega hisoblandi. Tadqiqotda murojaat kategoriyasi va nutq aktining umumiy belgisiga qarab ko'plab tilshunoslar tomonidan e'tirof etilgan murojaat kategoriyasi, so'zlash akti (lokutiv), muloqot (illokutiv), propozitsional, nutqiy ta'sir ko'rsatish (prelokutiv) aktlariga munosabat bildiriladi. Ushbu qarashlardan keyin nutqning turlariga nisbatan tilshunoslarni fikrini izohlash lozim.

Nutq aktining turlari

Ushbu nazariya ham koplak olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Ulardan o'zbek olimi M. Xakimov nutqiy akt ko'rinishlarini quyidagicha tasnifladi:

1. Rerezentativ yoki xabar nutqiy akti.
2. Majburiyat aktlari.
3. Ekspressiv aktlar.
4. Deklarativ aktlar¹⁰

Nutq akti va murojaat kategoriyasining nazariy jihatlari ilmiy muammo va undan kelib chiqadigan natijalar sifatida Sh. Safarovning "pragmalingvistika" asarida ham alohida o'rin egallagan va ahamiyat kasb etadi. Olim nutq akti nazariyasining pragmalingvistik ta'limotda tutgan o'rniga xolis baho berdi, tilshunoslarning nutq akti va murojaat kategoriyasining voqealanishi haqidagi nazariy qarashlarini yangi bilimlar bilan boyitdi¹¹. Jahon tilshunosligida nutq akti va murojaat kategoriyasi muammosining tahliliga bag'ishlangan tadqiqot ishlari ko'p bo'lsa-da, ularda murojaat kategoriyasi tushunchasi har xil talqin qilingan, uning ko'rinishlari turlicha tasniflangan. Nutqiy akt nazariyasi asoschilari J. Ostin, J. Serlning qarashlariga ko'ra nutq akti muayyan mazmunni ifoda etuvchi, tilning qonun-qoidalariga asoslangan holda bayon etilgan elementar nutqiy harakatni anglatadi va bu harakatda murojaat kategoriyasining roli va ahamiyati kattadir¹². Yana ma'lumot sifatida Safarovning fikrlariga qaytadigan bo'lsak, u aytadiki, har qanday nutqiy harakat birinchi navbatda so'zlovchining lisoniy vositalar yordamida murojaatini o'zaro ifodalab berish uchun xizmat qiladi. Demak, nutqiy akt so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir degan aniq bir xulosaga kelishimiz mumkin. Maqsadga nisbatan va amalga oshirilish shart-sharoitlariga ko'ra nutq akti illokutiv akt sifatida belgilanadi. Tilshunos olim Yu. D. Apresyan ifodaning illokutiv vazifasini "so'zlovchining adresat ifodani qanday tushinishi borasidagi ko'rsatmasi..." sifatida atashni taklif qiladi¹³. Ushbu qarashlar orqali bilib olishimiz mumkinki, nutq aktini turli xil qirralarga ajratishimiz mumkin ekan. Kommunikativ vaziyat ma'lum bir tuzilishga ega. U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: 1) so'zlovchi (adresant); 2) tinglovchi (adresat); 3) so'zlovchi va tinglovchining o'zaro munosabati va shunga bog'liqligi; 4) muloqot ohanglari (rasmiy-neytral-do'stona); 5) maqsadi; 6) muloqot vositasi (verbal yoki noverbal); 7) muloqot usuli (og'zaki/yozma, kontaktli/masofali); 8) muloqot joyi. Ushbu komponentlar kontekstual o'zgaruvchan hisoblanadi. Ularning har biridagi o'zgarish kommunikativ vaziyatning o'zgarishiga va buning natijasida vaziyat ishtirokchilari foydalanadigan vositalar hamda ularning kommunikativ xatti-harakatlari o'zgarishiga olib keladi. Shu

⁹ Safarov Sh., Toirova G. Nutqning etnosotsio-pragmatik tahlili asoslari. - Samarqand, Sam DCHTI nashri, 2007. - 39 b.

¹⁰ Xakimov M. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: FFD ...dis. - T. 2001, 134-151 bb.

¹¹ Radjapova N.M., Jumaniyozova Sh.Z., Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. M.A. nashriyoti, Xiva 2022-6-3. B76.

¹² Остин Дж. Слово как действие // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17. - М., 1986. - С. 22; Серль Дж.

Классификация иллокутивных актов II новое в зарубежной лингвистике: теория ролевых актов. -М., 1986 век XVII . - С.170-194.

¹³ Апресян Ю.Д. Прагматическая информация для толкового словаря. Коннотации как часть прагматики слова // Ю.Д. Апресян. Избранные труды в 2 т. - Т. 2. Интегральное описание языка и системная лексикография.



bois, murojaatlarning aynan qaysi vaziyatlarda qay tarzda kelishini o'rganish ahamiyatga molikdir¹⁴. Nutq egalari ya'niki so'zlovchi ayni maqsadni o'zlari xohlagan, mazkur nutq sharoiti uchun eng maqbuli deb tanlagan murojaat turini namoyish etishlari uchun ma'lum bir nutqiy aktdan foydalanadilar. Va turli fikrlarni ifodalash uchun nutq aktini ba'zi bir turlaridan foydalanishadi. Quyida ularga misol va namunalar keltirib o'tiladi. – Xoy olifta, pichoqni avval o'zingga ur, og'rimasa birovga (S.Siyoyev O.V.J. 117 b). Ushbu gapda buyruqni ifoda etuvchi nutqni ko'rishimiz mumkin. Ayni sintaktik struktura orqali so'zlovchi maqsadi bilan bog'liq tarzda o'zga axborot bayon etiladi. Masalan: – Xoy, Abdulloh, haligi bir maqol borku, nari borsa ho'kiz o'lar, beri kelsa arava sinar. Ushbu parchalar ham nutq aktini muloqotda foydalanish va unga mos ravishda javob olish haqida gaplar berildi. Shu jumladan nutq aktini yana bir ahamiyatini bilib olishimizga yordam berdi. Har bir konkret kommunikativ-pragmatik holatdagi “nutqiy vaziyat”da jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy (shu bilan birga nutqiy) standartlashtirilgan xatti-harakat qoidalari, ijtimoiy mavqelar, suhbatdoshlarning o'zaro munosabatlari, muloqot sharoitining rasmiy/norasmiyligi kabilar ekstralingvistik omillar majmuasi orqali belgilanadi. Sanab o'tilgan omillar N.I.Formanovskaya tomonidan quyidagi formulaga solinadi: kim – kimga – nima haqida – qayerda – qachon – nima sababdan – nima maqsadda¹⁵ va shular jumlasidandir.

Endi nutq aktini o'zbek va ingliz tillarda bo'ladigan suhbat yoki muloqot mobaynida yuzaga keladigan farqlarni va ular o'rtasidagi tafovutni anglash uchun misol va namunalar keltirib o'tishimiz maqsadga muvofiqdir. Bularidan “Hey” undalmasini qanday tushunish va muloqotdagi ma'nosini ko'rib chiqadigan bo'lsak ingliz tili muloqotida “Hey” undalmasi og'zaki so'zlashuv nutqida, do'stona va shu bilan birgalikda yaqin munosabatlarda, hatto ota-onaga, erga nisbatan ham ishlatilishi normal holat va qabul qilinadigan chaqiruv sifatida bo'lsa, o'zbek madaniyatida “Ey” hurmatsizlik, mensimaslik belgisi sifatida ifodalanadi va bu holatda muloqot suhbatda g'alizlik bo'lishi mumkin. Misol uchun ushbu ma'lumotga asoslanib namuna keltiradigan bo'lsak:

Hey! Take care yourself.

Hey! Everything will be Ok. Cakm dawn

Ushbu holatlarda nutq aktini qanday ifoda qilingani muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki bu holatda do'stona munosabat aks etmoqda. Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'zbek madaniyatida “Ey” undalmasi hurmatsizlik, mensimaslik belgisini ifodalasa, alohida bir holat borki, er-xotinlar o'rtasida bir-birini “Ey” tarzida murojaat qilish ayrim shahar yoki ma'lum bir chekka hududlarda saqlanib qolgan va shu tarzda ifoda etiladi. O'zbek madaniyatiga ko'ra er-xotin bir-birini ismini aytib murojaat qilishi ijobiy qabul qilinmaydi (ayrim hududlarda saqlanib qolgan). Yoki er-xotinlar bir-birlarining ismlarini o'rniga to'ng'ich farzandining ismi bilan murojaat qilishlari ham o'zbek madaniyati va mentalitetining o'ziga xos jihatlaridan biri hisoblanadi. Bu o'zbekona va o'zbeklarga xos an'ana desak boladi. Bunga namuna sifatida misol keltiradigan bo'lsak – Ey, kelishizda ro'zgorga kamchiliklarni olib keling (ayolning erini ey deb aytishi). Bu holatda esa bu mensimaslikni emas umuman boshqa ma'noni anglatadi. Mana shuning uchun ham nutq akti va uning turlari va muloqotdagi ahamiyati beqiyos. Agar biz yuqoridagi ayolni erga bolgan munosabatini andisha ekanini bilmaganimizda edi, biz allaqachon buni mensimaslikka yo'ygan bo'lardik. Shu jihatlar bilan ham nutq akti tilshunoslikning bir qismi bo'ldi desak adashmaymiz. Ular so'zlovchi maqsadini namoyish qiluvchi illokutiv kuchga egadir. Bu qabul qiluvchiga ta'sir qiluvchi kuchli vositadir, chunki unda “avval boshdanoq pragmatik funksiyalar mavjud”. Shu bois, tilni keng qamrovli kommunikativ kontekstda hamda nutqiy etiketning asosiy komponentlaridan biri bo'lgan murojaatni kommunikativ pragmatik yo'nalishda o'rganish tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biriga aylandi¹⁶. Aynan shu jihatlar bilan ham misollar orqali tushuntirilishi kerakdir.

¹⁴ Qodirova M.T. Turli tizimli tillarda murojaatning kommunikativ-pragmatik aspekti (ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ... tayyorlangan dissertatsiya. – Termiz 2021. 218- b.

¹⁵ Формановская Н.И. Употребление русского речевого этикета. – М.: Русский язык, 1984.

¹⁶ Леонович Е.О. Прагматический аспект обращения (на материале английского языка): Автореф. канд. дис. – Пятигорск, 1999. – С.14.



Endi Jon Ostinning fikrlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u nutq aktini bir necha ko'lamlarga bo'lgan va o'z nazariyalar va asoslari orqali asoslab misollar keltirib o'tgan. Jon Ostin Solonning mashhur qadimiy "So'z - bu o'ziga xos ishdir" iborasiga tayangan holda quyidagi fikrlarini bildiradi: "Ma'lum bir gaplarning ma'lum bir sharoitda aytilishi qandaydir harakat, ishning bajarilishi bilan barobardir"- deydi va nutq aktining uchta komponentga bo'ladi: lokutiv, illokutiv, perlokutiv. Lokutiv- bu aslida gapirish, bayonotni talaffuz qilish harakati; Illokutiv- bu adresatga ta'sir qilish maqsadida aytilgan bayonot; bu bosqichda so'zlovchining kommunikativ niyati amalga oshadi; Perlokutiv-bu nutq harakatini bajarish natijasida erishilgan ta'sir, ya'ni nutqning yagona darajalaridan biri bo'lib, uning bajarilishi adresatga bog'liq.¹⁷ Ayrim ilmiy adabiyotlarda nutqiy aktlar strukturasi to'rtga bo'linadi: so'zlash yoki tallaffuz akti-lokutiv, gap orqali ifodalangan asosiy axborot - propozitsiya yoki propozitsional akt, so'zlovchining kommunikativ niyati yoki maqsadi- illokutiv akt, gap yoki ifoda orqali tinglovchiga nutqiy ta'sir etish- perlokutiv akt hisoblanadi¹⁸.

Nutq aktining tuzilishi haqida biroz boshqacha fikrlar J. Serlda uchraydi. U nutq aktida to'rtinchi propozitsional aktini ilmiy muomalaga kiritadi. Serl nutq aktlarini 12 parametrini ajratib ko'rsatdi va ularning tasnifini ishlab chiqdi¹⁹. Bundan tashqari ham ko'plab fikrlar va o'ziga yarasha tanqidlar ham keltirib o'tildi. Bazilari esa quyidagi fikrni aytishdi: muloqot jarayonidagi nutqiy aktlar o'zaro bir-biriga bog'liq ekanligi sababini kommunikatsiya -nutqiy birliklar asosida shakllanishi vabunday aloqador propozitsiyalar va illokutsiyalar voqelanishining muhim talabini tashkil etishida deb biladi hamda nutqiy aktlar ketma-ketligida illokutiv mazmun asosiy o'rindaligini izohlaydi. Tyon Van Deyk bu hodisani "makro nutqiy akti" deb nomlaydi.²⁰ Bundan tashqari turli xil tushunchalar ham o'z aksini topadi. Misol uchun muloqot yoki berilayotgan fikr maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi yoki anglatish mumkin. Bu borada esa bir necha fikrlarni inobatga olish lozim. Maqsadga nisbatan va amalga oshirilish shart-sharoitlariga ko'ra nutq akti illokutiv akt sifatida belgilanadi. Tilshunos olim Yu.D. Apresyan ifodaning illokutiv vazifasini "so'zlovchining adresat ifodani qanday tushunishi borasidagi ko'rsatmasi."²¹.. sifati atashni taklif qiladi.

Yana nutq aktini tushunishga bag'ishlangan misollarni davom ettirilsa, o'rganuvchiga oson va tez tushunilishiga yordam beradi. O'zbek tilidan misollar orqali tushuntirilsa bir so'zni turli ma'nosini turli muloqot davomida to'g'ri va kontekstga mos ravishda anglash uchun ham ushbu bo'lim muhim ahamiyat kasb etadi. Beriladigan na'muna esa murojat uchun va aynan shunga o'xshash munosabatlarda ishlatiladi. Va aynan shu muhokama uchun B. Mengliyev o'z hissasini turli misollar orqali qo'shgan va angalsh jarayoniga yordam bergan. Bu esa nutq aktini turlarini tushunishga yordam bergan.

B. Mengliyevning odam leksemasining semantik jihatdan tahlili yoritilgan maqolasida "odam" leksemasining erkak sememasi bilan tenglashtirishning yaqqol ko'rinishini *xo'jayin* leksemasining mazmun silsilasini uchta genetik bog'langan nisbiy mustaqil sememalardan tashkil topgan nisbiy yaxlitlik sifatida quyidagicha ta'riflash mumkin:

1. Fikrlash, so'zlash va mehnat qobiliyatiga ega maxluq.
2. Erkak kishi.
3. Turmush o'rtog'i.
4. Voyaga yetgan kishi

O'zbek tilining izohli lug'atida: Xo'jayin.Xo'ja, ega, sohib,zamonaviy tilde esa direktor. Biror narsaga yer, mol-mulkka egalik qiluvchi shaxs, xususiy mulk egasi, mulkdor boy:

¹⁷ Дж Остин. Слово как действие// НЗЛ. Вып. XVII.-М.,1986.

¹⁸ Дорошенко А.В. Побудительные речевые акты в косвенных контекстах.// В кн.: Логический анализ языка. - М.,1989.с.77.

¹⁹ Серль Дж. Р. Что такое речевой акт? / Дж. Р. Серль// Зарубежная лингвистика: Пер. с англ. / Общ. ред. В.А.Звегинцева, Б.А.Успенского, Б.Ю.Городицкого. - М., 1999. - Вып.2. - С.210-228.

²⁰ Teun Van Dijk, Aims of Critical Discourse Analysis,17-27 p. 1995

²¹ Апресян Ю.Д. Прагматическая информация для толкового словаря. Коннотации как часть прагматики слова // Ю.Д. Апресян. Избранные труды в 2 т.



- 1) [Mirzakarimboy] Xo‘jayin degan xizmatkorlarni qiziqtirish uchun va‘da qilaveradi-da.. Oybek, Tanlangan asarlar.
- 2) Biror narsaning to‘la huquqli egasi. O‘zimiz xo‘jayin o‘z yerimizga, Erkinmiz, nomimiz, xuquqimiz bir. R. Bobojon.
- 3) Rahbar xodimga murojaat shakli. Xo‘jayin, mashina tayyor, dedi shofyori. (Gazetadan)
- 4) Ayolning eriga murojati: Xo‘jayin,ro‘zg‘orda olib kelinadigan kamlar bor.

Ushbu misollar nutq aktini tushinib olishga yordam beradi. Quldorlik tuzumi maydonga kelgach, qul va quldorning asl nomi (masalan, Asqar, Salim)dan tashqari, ularning ijtimoiy atamaları (quldor, qul) ham hech kimga bog‘liq bo‘lmagan holda, u yoki bu darajada tabulashtirilgan – to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytilmagan. Natijada quldor uchun xo‘ja, xo‘jayin, sohib, senyor, ser, shef, qul uchun xizmatkor, mardikor, chorakor, xodim, navcha, cho‘ri, oqsoch, joriya kabi nisbiy evfemik atamalar yuzaga kelgan. Tabulashtirish va evfema qo‘llash qonuniyatlari jamiyatning barcha taraqqiyot bosqichlarida ham amal qilgan.²²

Nutq akti va uning tarkibiy qismi bo‘lgan murojaat kategoriyasiga mos bo‘lgan va atalgan ta‘rif va talqindan shu ma‘lum bo‘ladiki, murojaat kategoriyasi axborot almashuv doirasida amal qiladi va muloqotning verbal ya‘niki og‘zaki birligi hisoblanadi. Muloqot jarayonida nutq ishtirokchilari murojaatni ifoda etishning turli usullaridan va metodlardan foydalangan holda nutq faoliyatini o‘zaro amalga oshiradilar. Nutq akti murojaat kategoriyasidan samarali foydalanilganda jamiyat a‘zolari tomonidan turli, o‘rinli qabul qilinib, nutq me‘yorlari qoidalariga muvofiq tarzda amalga oshiriladigan, muayyan maqsadga yo‘naltirilgan nutqiy harakat hisoblanadi. Va bu o‘zaro nutq munosabatlarida muhim ahamiyat kasb etadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, har qanday nutq aktining turlari o‘z ko‘lami doirasida muhimlik darajasini yo‘qotmagan. Shu tufayli ham aloqa munosabatlardagi tushuniladigan fikr va mulohazalar o‘z navbatida muhim ahamiyatga egadir. Shuni ta‘kidlash joizki, nutq akti va uning turlari haqida ko‘plab ma‘lumotlarni Jon Ostin tomonidan berilgan bo‘lsa ham undan tashqari amerikalik olim J.R Seyor ham o‘z qarashlarini ifodalab bergan. U J. Ostinning nutq akti nazariyasiga asoslangan holda o‘zining nutq akti taksonomiyasini yaratdi. J. Ostin nazariyasiga muvofiq so‘zlovchi tinglovchiga yetkazmoqchi bo‘lgan xabarni to‘rt guruhga tegishli bo‘lgan til birliklari orqali ifodalash mumkin bo‘ladi: → Constative – darak gap → Directives – buyruq gap → Commissives – taklif → Acknowledgement – E‘tirof. Bularni ham o‘z navbatida asoslab bergan. Ta‘kidlanganidek yuqoridagi nutq akti tiplari J. Ostin tomonidan taklif etilgan bo‘lib, ushbu nazariyaga asoslangan holda J.R.Seyor ham o‘z klassifikatsiyasini taklif etgan. Unga ko‘ra Seyorl nutq akti tiplarini to‘rt guruhga ajratgan: → Representatives-ifodalovchi → Directives- buyruq → Commissives-Taklif → Expressives-tasvirlovchilar.²³

Ushbu sohada J. Ostin va J.R. Seyorlarni tashqari jahon va O‘zbek tilshunosligining bir qancha yetuk olim va faylasuflari o‘z ilmiy izlanishlarini olib borganlar. Bularga misol tariqasida nemis faylasufi A. Kemmerling, belarus olimi A. Kiklevich, V.Z. Panfilov, O‘zbek tilshunos olimlari A.Nurmonov, Sh.Safarov, N.Mahmudovlarni²⁴kiritishimiz mumkin. Bu fikrlarga to‘xtalib o‘tishdan avval J.Ostin va Seyorlar tomonidan berilgan kategoriyani eslab o‘tilsa maqsadga muvofiqdir chunki bu bilab biz tushunib olishimiz osonlashadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Quyidagi beriladigan turlar aynan shularni yaqqol misolidir.

Darak gaplar	Buyruq gaplar	Taklif	E‘tirof
1. Assertive - ta‘kid	Requestive - ehtiyoj	Promise - va‘da	Apologize - kechirim so‘ramoq
2. Predictive - bashorat	Question - savol	Offer -taklif	Condole - ta‘ziya bildirmoq
3.Retrodictive - hisobot	Requirements - talab		Congratulate-tabriklamoq

²² Omonturdiyev A.J. Professional nutq evfemikasi (chorvadorlar nutqi misolida). Filol. fan. dok. ... dis. – Toshkent, 2009. 252 b

²³ K.Bach, R.M.Harnish.Linguistic communication and speech acts.MITT press, London 1979, P-41.

²⁴ Radjapova N.M., Jumanioyozova Sh.Z., Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi. M.A. nashriyoti, Xiva 2022-6-3. B76



4.Descriptive - tasvirlash	Prohibitive - taqiqlovchi		Greet-salomlashmoq
5. Ascriptive - tavsiflash	Permissive - ijizat beruvchi		Thank - minnatdorchilik bildirmoq
6.Informative - ma'lumot	Advise - maslahat bermoq		Bid - taklif kiritmoq
7. Confirmative - tasdiq			Accept - qabul qilmoq
8. Concessive - tan olmoq			Reject - rad qilmoq
9. Retractive - iqrar			
10. Assentive - rozilik			
11.Dissentive - norozilik			
12.Disputative - munozara			
13. Responsive - javob			
14. Suggestive - taklif			
15.Suppositive - mulohaza			

Ushbu kategoriya J. Ostin tomonidan taklif etilgan bo‘lib, o‘z qarashlari orqali ifodalab berilgan va buni tushunishga qulay deb olingan va tilshunoslikda nutq aktini asosiy omillardan deb qaraladi. Shu jumladan, ko‘plab yana fikr va qarashlarni keltirib o‘tishimiz joizdir. Chunki yana fikr va g‘oyalar ko‘lami tadbiq qilishga arziydi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Boshqa bir olim va tilshunoslarning fikriga quloq soladigan bo‘lsak Jon Serl ham mulohazali fikrlar bildirib o‘tgan.

Lisoniy muloqot birligi, odatda, taxmin qilganlaridek, simvol (ramz), so‘z yoki gap emas, hatto simvol so‘z yoki gapning belgisi ham emas, balki simvol, so‘z yoki gapning nutqiy akt ijrosi jarayonida yaratilish va qo‘llanishidir²⁵. Demak, oldindan tayyor bo‘lgan so‘z yoki gap nutqiy akt uchun birlik sifatida foydalanilmaydi, balki nutqiy akt uchun so‘z yoki gap aynan nutqiy muloqot jarayonida yaratiladigan hodisa hisoblanadi. Rasmiy nutqning yozma shaklidagi bazi namunalarda “habar”, “tasdiq” hamda “ogohlantirish” nutqiy aktlari belgilangan. “.nutqiy aktlarning matniy xoslanishi va anglanishini qat‘iy ravishda nutq vaziyati boshqaradi. Shuning uchun ham pragmatik nuqtai nazardan nutq vaziyati har qanday nutq uchun mezon vazifasini bajaradi. Nutq vaziyatining mezon vazifasi niyat (illokutiv akt) tushunchasi bilan uzviy bog‘liqdir, chunki so‘zlovchi fahmiy tasavvuri uchun signal vazifasini bajaruvchi barcha perseptiv a‘zolar oldindan so‘zlovchini nutq vaziyati haqidagi axborot bilan ta‘minlaydi. So‘zlovchi o‘z nutqini shakllantirishdan avval niyat akti bilan nutq vaziyati orasidagi mutanosiblikni saqlaydi²⁶”. Ushbu fikrlardan tashqari ham shuni qo‘shimcha qilib ta‘kidlash mumkinki rasmiy manbalarda ham bu kabi fikrlarni ham ko‘rishimiz mumkin va shu bilan birgalikda ko‘plab fikrlarni tasdiq ma‘nolarini anglab olish qiyin emas. Biz muloqot jarayonida mazmunder lisoniy kalimani yaratamiz va uni talaffuz qilish yo‘li bilan nutqiy faoliyat bajaramiz, xuddi shu faoliyat ijrosi lokutsiya yoki lokutiv aktdir. Agarda biror bir sabab bilan (tilni bilmaslik, gung bo‘lish) mazmunder gap tuzilmasa va u talaffuz etilmasa, lokutiv harakat yuzaga kelmaydi²⁷. Shunday ekan, biror tilning qoidalari va grammatik qurilishiga amal qilgan holda mazmunan to‘liq tuzilgan nutqiy akt lokutiv akt hisoblanib, o‘z mohiyati doirasida qollanilsa bo‘ladi. Ushbu fikrlarga tayangan holda lokutiv harakatni anglab olishimiz va mavzu yuzsidan foydalansak bo‘ladi. Tilshunos olim M. Hakimovning lokutiv akt xususidagi qarashlari ham shunday: “Lokutiv akt (ingl. lokution akt - talaffuz) - ma‘lum tovush va so‘zlarni o‘sha til qonun-qoidalari va grammatikasini hisobga olgan holda talaffuz qilish, shu asosda ifodani mazmun va referensiya bilan ta‘minlash”²⁸. Demak, har bir

²⁵ Серль Дж.Р. Косвенные речевые акты в кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17. М.: Прогресс, 1986. - С. 195

²⁶ Ҳақимов М. Ўзбек тилида матнинг прагматик талқини: Филол.фан.докт.дисс. – Тошкент, 2001 – 108-бет.

²⁷ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2008. - 82-бет.

²⁸ Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: “Академнашр”, 2013. – 155-бет.



tilshunosning nutq akti borasida qarashlari turli bo'lsada asl tub negizlar bir biriga o'xshash va tadbiiq qilganda ham muammolarga duch kelinmaydi. O'zbek va amerika tilshunoslari o'zaro fikrlarini ifodalab berishgan va o'z nazariyalariga ko'ra asoslab berilgan. Shu sababdan ham bu olimlarning fikri nutq akti va turlarida o'z mohiyatini yo'qotmagan.

Xulosa

Nutq akti va uning turlari mavzusi bo'yicha quyidagi fikrlar bilan xulosalash maqsadga muvofiq bo'ladi desak adashmagan bo'lamiz. Nutq akti va uning tarkibiy qismi bo'lgan murojaat va boshqa kategoriyasiga berilgan ta'rif va tasniflardan ma'lum bo'ladiki, murojaat kategoriyasi axborot almashuv doirasida amal qiladi va kommunikativ muloqotning verbal va aloqa birligi sanaladi. Muloqot jarayonida nutq ishtirokchilari murojaatni ifoda etishning turli usullaridan foydalangan holda nutq faoliyatini amalga oshiradilar va shunga monand tarzda fikrlar izohlangan. Jahon tilshunosligida pragmatikaning asosiy nazariyalaridan biri nutqiy akt nazariyasi hisoblanadi. Nutqiy harakatni anglatuvchi kommunikativ aloqaning verbal ifodali birligi nutqiy akt sanaladi va buni alohida nazariya qilib tilshunoslikka olib kirilgan. Bundan tashqari esa muloqotni yoki suhbatni samarali va mazmunli o'tkazish nutqiy aktda xabar, murojaat, so'roq, buyruq, izoh berish, do'q-po'pisa, tashakkur bildirish, kechirim so'rash, tabriklash yoki tasalli berish kabi bir qancha turli nutqiy harakatlar bilan amalga oshiriladi. Va shu jumladan suhbatni nafaqat mazmunli balki, o'z navbatida chiroyli va ravon ifodalab berish uchun ham xizmat qiladi. Bazi hollarda esa bu turdagi nutq aktlar turli tushunilib olishi mumkin. Ikki davlat tili o'rtasidagi farqlar ham ushbu kontekstlar orqali turlicha angalanishi mumkin. Yuqorida ham "Hey" misolida buni ko'rib chiqdik. Shu jihatlarni ham inobatga olgan holda ham nutq aktini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola orqali ko'plab olimlar fikrini inobatga olingani va nutq akti pragmatikaning asosini tashkil etishi haqidagi ma'lumotlar yuzaga chiqdi va tadbiiq etildi.

References

1. Dijk T.A. van. Studies in the pragmatics of discourse / Dijk T.A. van. – The Hague etc.: Mouton, 1981. – XII, 331p
2. K. Bach, R.M. Harnish. Linguistic communication and speech acts. MITT press, London 1979, P-41.
3. Kamariddinovna, M. E. (2024). DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FOREIGN LANGUAGE EDUCATION. *Western European Journal of Linguistics and Education*, 2(4), 66-70.
4. Leech G.H. Principles of Pragmatics / Leech G.H. – NY, London: Longman, 1983. – 250 p.
5. Mey J.L. Pragmatics. An Introduction / Mey J.L. – USA, UK: Blackwell Publishers, 2001, 2 nded. –500
6. Omonturdiyev A.J. Professional nutq evfemikasi (chorvadorlar nutqi misolida). Filol. fan. dok. ... dis. – Toshkent, 2009. 252 b
7. Qodirova M.T. Turli tizimli tillarda murojaatning kommunikativ-pragmatik aspekti (ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ... tayyorlangan dissertatsiya. – Termiz 2021. 218- b.
8. Radjapova N.M., Jumaniyozova Sh.Z., Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. M.A. nashriyoti, Xiva 2022-6-3. B76
9. Shakhnoza, I., Zamira, S., & Asqar, O. (2024). IMPROVING LISTENING SKILLS OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS THROUGH MUSIC AND SONGS. *Western European Journal of Linguistics and Education*, 2(4), 61-65.
10. Sitora, O. (2024). IMPROVE ENGLISH VOCABULARY WITH THE HELP OF DOING CROSSWORD PUZZLES FOR A1 LEVEL STUDENTS (ELEMENTARY). *Western European Journal of Linguistics and Education*, 2(4), 45-51.



11. Teun Van Dijk, Aims of Critical Discourse Analysis, 17-27b 1995.
12. Апресян Ю.Д. Прагматическая информация для толкового словаря. Коннотации как часть прагматики слова // Ю.Д. Апресян. Избранные труды в 2 т
13. Безменова И.А. Некоторые проблемы теории речевых актов/ И.А. Безменова, В.И. Герасимов // Языковая деятельность в аспекте лингвистической прагматики: Сб. обзоров. Сер. Теория и история языкознания/ Отв. ред. В.И. Герасимов. – М., 1984. – С. 146-222.
14. Дж Остин. Слово как действие// НЗЛ. Вып. XVII.-М., 1986.
15. Дорошенко А.В. Побудительные речевые акты в косвенных контекстах. // В кн.: Логический анализ языка. -М., 1989. с.77
16. Леонович Е.О. Прагматический аспект обращения (на материале английского языка): Автореф. канд. дис. – Пятигорск, 1999. – С.14.
17. Лингвистический энциклопедический словарь. - М.:Сов, энциклопедия, 1990
18. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2008. - 82-бет.
19. Серль Дж. Р. Что такое речевой акт? / Дж. Р. Серль// Зарубежная лингвистика: Пер. с англ. / Общ. ред. В.А.Звегинцева, Б.А.Успенского, Б.Ю.Городицкого. – М., 1999. – Вып.2. – С.210-228.
20. Серль Дж.Р. Косвенные речевые акты В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17. М.: Прогресс, 1986. - С. 195
21. Формановская Н.И. Использование русского речевого этикета. – М.: Русский язык, 1984.
22. Франк Д. Семь грехов прагматики: тезисы о теории речевых актов, анализе речевого общения, лингвистике и риторике/ Д. Франк// Зарубежная лингвистика: Пер. с англ. / Общ. ред. В.А.Звегинцева, Б.А. Успенского, Б.Ю. Городицкого. – М., 1999. – Вып.2. – С.254-264

